ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

BOSHLANG`ICH TA'LIMDA INTEGRATSIYALASHGAN MASHG'ULOTLAR VA UNING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Daminova Shoxista Farxodovna JDPU "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yo'nalishlarida masofaviy ta'lim" kafedrasi katta o'qituvchisi
Halimova Gulnoza Baxodirovna "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi 5-kurs talabalari

Annotatsiya: Hozirgi kunda boshlang'ich maktab ta'limida integratsiyalangan mashg'ulotlar haqida ko'p gapirilmoqda. Bu tushuncha kichik maktab o'quvchisi atrofidagi olamni bir butunligicha qabul qilish, uning uchun o'quv fanlari nomi emas, balki atrofidagi olam obyektlarining tovushlar, ranglar, hajmlarning turli-tumanligining qiziqarliligi bilan harakterlanadi. Bolalarning tabiat va kundalik hayotdagi barcha narsalarning bog'liqligini ko'rishga o'rgatish kerakligini o'qituvchi sezadi, biladi. Mazkur maqolada boshlang`ich ta'limda integratsiyalashgan mashg'ulotlar va uning o`ziga xos xususiyatlari va muammolari keltirib o'tilgan.

Kalit so`zlar: integratsiya, ta'lim, fan, fanlararo aloqadorlik, dars, metod, integratsion yondashuv, muammo, qonun.

Аннотация: В настоящее время много говорится о интегрированных занятиях в начальном школьном образовании. Это понятие характеризуется восприятием младшим школьником окружающего мира как единого целого, где для него важны не названия учебных предметов, а разнообразие звуков, цветов и форм окружающих объектов. Учитель понимает и осознаёт необходимость научить детей видеть взаимосвязь всего в природе и повседневной жизни. В данной статье изложены особенности и проблемы интегрированных занятий в начальном образовании.

Ключевые слова: интеграция, образование, предмет, межпредметные связи, урок, метод, интегративный подход, проблема, закон.

Annotation: Nowadays, integrated lessons in primary school education are widely discussed. This concept is characterized by the perception of the world by young students as a whole, where they are interested not in the names of academic subjects, but in the diversity of sounds, colors, and shapes of surrounding objects. The teacher realizes the need to teach children to see the interconnection of everything in nature and everyday life. This article highlights the features and problems of integrated lessons in primary education.

Keywords: integration, education, subject, interdisciplinary connection, lesson, method, integrative approach, problem, law.

Ilm-fan yutuqlari va ularning insonlar hayotidagi o'rni rivojlangan mamlakatlar maktab ta'limi mazmuni va strukturasiga ta'sir o'tkazmay qolmaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrlash qobiliyatining har xil turlarini shakllantirish integratsiyaning negizi hisoblanadi. Asosiy fanlarni o'zlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarini o'rnatish ta'limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunda turli darslar tushunchalariga ko'p marta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo'lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib, tarkibiga shu o'quv predmetiga tegishli bo'lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

Integratsiya - bu fanlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog‘liqligidir. Integratsiya jarayoni fanlar orasidagi aloqani yangi, yuqori sifatda birbiriga bog‘lash bosqichi bo‘lib, o‘zini yuqori ko‘rinishda namoyon etadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, integratsiya jarayoni asoslari uzoq o‘tmishdagi xalq pedagogikasi va ilmiy pedagogikaga asoslangan. Integratsiya fanlararo bog‘liqlikdir. Fanlararo bog‘liqlik asoslari tabiatni to‘la holda o‘quv darsliklarda ko‘rsatish va tushuntirish zaruratidan paydo bo‘lgan.

Ta’limni integratsiyalashning asosiy maqsadi boshlang‘ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqidagi yaxshi tasavvur asoslarini qo‘yishi va ularning rivojlanishi qonunlariga o‘z munosabatlarini shakllantirishdir. Mana shuning uchun kichik maktab o‘quvchisi predmet yoki voqelik hodisalarining bir necha tomondan ko‘rish muhimdir. Zamonamiz yangi asrning yangilanish davrida ekan, bu borada farzandlarimizni jamiyat taraqqiyotiga hamohang barkamol shaxs qilib tarbiyalamog‘imiz darkor.

Shunday ekan mamlakatimizga “sifatli” yoshlarni yetkazib bermog`imiz shart. Bu borada prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning mana bu so`zlari yodga tushadi: “Sizlarga yaxshi ma’lum, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohot va o`zgarishlar keng ko`lamli dasturlar yagona va ulug` bir maqsadga qaratilgan. U ham bo`lsa, xalqimiz hayotini yanada obod va farovon qilish, farzandlarimizni har tomonlama yetuk va barkamol etib tarbiyalashdan iborat”. Ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar faol rivojlanayotgan davrda “integratsiya” tushunchasi dunyo miqyosida o`z o`rnini egallab bormoqda. Integratsiya asosida dars o`tish bu eng asosiysi vaqtdan yutishdir demakdir.

Mamakatimizda integratsiyaga bog`liq turli mavzularda ishlar ko`rildi. Integratsiya borasidagi ishlar, baxslar ko‘p lekin quyidagi savollar javobsiz qolyapdi: Biz integratsion dars deyapmizu, ularni amalda qo‘llay olyapmizmi? Boshlang`ich sinflardagi darslar integratsiya asosida o`tilsayu, tanlangan fan mavzularining o`tish muddati turli choraklarda bo‘lsa unda nima qilish kerak? Integratsiyalashgan dars 45 daqiqada o`tilsa ham alohida-alohida bir soatlik dars hisoblanadimi? Integratsion dars o`tishga maktablarimizda sharoit bormi? Turli jurnallarda integratsion dars ishlanmalarni ko`ryapmiz. Ularni darsda qo`llashga ruhsat bormi? Agar ruhsat bo`lsa dars jadvalidagi bir dars soatining vaqti bo`sh qolaveradimi?

Asosiy fanlarni o‘zlashtirish va olamdagi bor narsalarning qonuniyatlarini tushinishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarni o‘rnatish ta’limga integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunga turli darslarga tushunchalarga ko‘p marotaba qaytishi, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo‘lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib, yaxshi shakllangan tuzilish va o‘tkazish tartibiga ega bo‘lgan, tarkibiga shu o‘quv predmetiga tegishli bo‘lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyasiga asos qilib olinishi mumkin. Lekin integratsiyalashgan darsga boshqa fanlar, boshqa o‘quv predmetlari bilan bog‘liq tushunchalar tahlil qilishning natijalari kiritiladi. Masalan, “qish”, “sovuq”, “bo‘ron” kabi tushunchalar o‘qish, rus tili, tabiiy fan, musiqa, tasviriy san‟at darslarida ko‘rib chiqiladi. Tushunchalarni tahlil qilish boshqa o‘quv darslarida o‘zlashtirilgan bilimlarga murojaat qilinadigan darslar integratsiyalashgan hisoblanadi.

Dars ijodiy, erkin bo‘lishi bilan birga, yaxlit, mantiqan ketma-ket, o‘ziga xos o‘tishi metodikasiga ega bo‘ladi. Shu kabi savollar integratsiyalashgan dars o`tishimizga halal berib kelmoqda. Qachonki, bu savollarga aniq, to`liq javob bersakkina biz integratsiyaning rivojlanishini tezlashtira olamiz. Misol uchun ona tili va matematika fanlarining integratsiyalashgan mavzularini 3-sinflar misolida ko`rib chiqaylik.

3-sinf matematika kitobidagi: Rost va yolg`on mulohazalar va 3-sinf ona tili kitobidagi darak gap mavzularini integratsiya qilsa bo`ladi. Chunki mulohazalar bu darak gaplardan iborat fikrlardir.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

Mulohaza hech qachon so`roq gap, undov gap, buyruq gaplardan tuzilmaydi. Rost va yolg`on mulohazalar berilgan darak gaplarni rost yoki yolg`onga ajratishni talab qiladi. Integratsion darslarni amalda qo`llashga keng yo`l ochilishi; integratsion darslar uchun sharoitlar yaratilishi; integratsion darslar mavzulari o`tish muddati turli choraklarda bo`lsada o`tilganlar hisoblanishi mumkin. Darslar 45 daqiqa ichida o`tilsa ham alohida-alohida soatlar hisoblanishi; Integratsiyalashgan bo`sh qolgan soatning qo`shimcha mashg`ulotlarga yo`naltirilishi. O`ylaymanki, integratsiya asosida dars o`tish uchun barcha to`siqlar olib tashlansa, o`quvchilarimiz yanada mukammal shaxs bo`lib kamol topishadi. Boshlang‘ich ta’limda integratsiyani amalga oshiruvchi bo‘g‘in vazifasini o‘qituvchining o‘zi amalga oshiradi. U bolalarning arifmetikaga, yozishga, tabiat va ko‘pgina boshlang‘ich tushunchalarga o‘rgatadi. O‘z kuch va imkoniyatlari darajasida bu ishni amalga oshiradi. Boshlang‘ich ta’limda integratsiyani bir-biriga nisbatan yaqin fanlarni birlashtirish asosida ko‘rish maqsadga muvofiq. Ta`limning keyingi pog‘onalarida u asosiy fanlarning chegaralarini birlashtirishga harakat qiladi. Boshlang‘ich ta`lim-tarbiyani integratsiyalashda ijobiy va salbiy omillar mavjudligini hisobga olish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo`limizni qat‟iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`tarilamiz. – Toshkent: O`zbekiston, 2017.

2. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O`zbekiston, 2017.

3. Mavlonova R. va boshqalar. Boshlang`ich ta’lmning integratsiyalashgan pedagogikasi. – Toshkent: Ilm-ziyo, 2009.

4. Yo‘ldoshev J. Xorijda ta’lim integratsiyalashgan va maxsus kurslar. – Toshkent: Sharq, 1995.

5. R. Ikromova, X. G‘ulomova va boshqalar. Ona tili. 3-sinf – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.